

Mening Vatanim – O‘zbekiston!



**Maqolni o‘qing.
Ma’nosini tushuntiring.**

*Ona yurtning omon bo‘lsa,
Rangi ro‘ying somon bo‘lmas.*



O‘qing.



Mustaqillik kuni – O‘zbekistonning suveren, erkin davlat bo‘lgani bayram qilinadigan kun.

1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston o‘z Mustaqilligini e‘lon qildi! Shundan buyon biz har yili 1-sentabrda bu bayramni nishonlaymiz.

O‘zbekiston – boy tarixga va mehnatsevar xalqqa ega mamlakat. Mustaqillik yillarida yurtimiz nafaqat go‘zal, balki kuchli, dadil va muvaffaqiyatli davlatga aylandi. Mamlakatimiz iqtisodi jadal sur‘atlar bilan o‘sd.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan yangi maktablar, shifoxonalar, uylar, yo‘llar va xiyobonlar qurilmoqda.



Shahar va qishloqlarda dam olish hamda ko'ngil-ochar maskanlar ko'paymoqda. Yurtimizda zamonaviy avtobus va avtomobillar ishlab chiqarilmoqda. Muhtasham binolar, ko'priklar hamda metro bekatlari qurilmoqda. Shaharlarda zamonaviy turar joylar, bolalar maydonchalari va "aqlli" svetoforlar o'rnatilmoqda.

Ekologiyaga alohida e'tibor qaratilmoqda: daraxtlar ekilib, bog'lar yaratilmoqda, havo va suv tozaligiga ahamiyat berilmoqda. Quyosh va shamol bizga energiya beradi. Olimlar bu energiyadan kundalik hayotda yanada ko'proq foydalanish yo'llarini izlamoqdalar.

Yangi universitetlar va o'quv markazlari ochilmoqda. Maktablarda zamonaviy sinfxonalar paydo bo'lmoqda. Muhandislar insonlar og'irini yengil qiladigan yangi loyihalar ustida izlanishmoqda. Bunday g'oyalar **innovatsiyalar** deyiladi.

Aziz bolajonlar! Siz kelajagimiz poydevorisiz. Zamonaviy dunyoda dadil qadam tashlashingiz uchun aqlli, mehribon va kuchli bo'lib ulg'ayishingiz kerak. Buning uchun a'lo baholarga o'qishingiz, yangi bilimlarni egallashingiz va **sog'lig'ingizni asrashingiz juda muhim**.





O‘z yurtigingizni sevishingiz, uning tarixini bilishingiz va qadriyatlarini hurmat qilishingiz nihoyatda zarur. Har kuni iqtidoringizni rivojlantirishga va boshqalarga yordam berishga harakat qiling. Shundagina yaxshi inson bo‘lib voyaga yetasiz, ko‘plab yaxshi ishlarni amalga oshira olasiz.



1. O‘zbekistonning Mustaqillik kuni qachon nishonlanadi?
2. Mustaqillik yillarida yurtimizda qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi?
3. Siz mamlakatimiz taraqqiyotiga qanday hissa qo‘shmoqchisiz?



**Maqollarni o‘qing.
Mazmunini tushuntiring.**

- Vatanga xizmat – oliy fazilat.
- Vatan ona kabi yagonadir.
- Har kimning Vatani o‘ziga aziz.



Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab berishga tayyorlaning.

